



THEORIES OF SOCIAL STATE FORMATION IN KHOREZM IN THE MIDDLE AGES

Mukhabbat Davletova

PhD student

Tashkent State University of Economics

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: welfare state, justice, just society, social equality, people and state, social stability, Islam, Abu Rayhan al-Biruni, Al-Khwarizmi.

Received: 17.02.25

Accepted: 19.02.25

Published: 21.02.25

Abstract: The theories of the social state are not only the fruit of today but also the result of the past. In particular, in Khorezm during the Middle Ages, especially during the First Renaissance period, ideas about the "The welfare state" and "just society" began to take root, with the social and political views of thinkers like Abu Rayhan al-Biruni and Al-Khwarizmi holding particular significance. This article analyzes the theories and concepts related to the "just society" and examines in detail the principles of state governance that were established in Khorezm region.

O'RTA ASRLARDA XORAZMDAGI IJTIMOIY DAVLAT QURILISH NAZARIYALARI

Muxabbat Davletova

PhD doktoranti

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, adolat, adolatli jamiyat, ijtimoiy tenglik, xalq va davlat, ijtimoiy barqarorlik, Islom dini, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy.

Annotatsiya: Ijtimoiy davlat haqidagi nazariyalar faqat bugunning emas balki o'tmishning ham mevasi hisoblanadi. Xususan, Xorazm diyorida o'rta asrlar, ayniqsa, Birinchi Renessans davrida "ijtimoiy davlat", "adolatli jamiyat" haqidagi g'oyalar kurtak yozishni boshlagan bo'lib, bunda Abu Rayhon Beruniy va Al-Xorazmiy singari mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ham "adolatli jamiyat" haqidagi nazariya va

qarashlar tahlil etilib, Xorazm hudida tashkil topgan davlatlarning davlat boshqaruvi tamoyillari atroflicha ko'rib chiqiladi.

ТЕОРИИ ПОСТРОЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА В ХОРЕЗМЕ В СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

Мухаббат Давлетова

докторант PhD

Ташкентский Государственный Экономический Университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Социальное государство, справедливость, справедливое общество, социальное равенство, народ и государство, социальная стабильность, Ислам, Абу Райхан Беруни, Аль-Хорезми.

Аннотация: Теории социального государства являются не только плодом настоящего, но и результатом прошлого. В частности, в Хорезме в средние века, особенно в период Первого Ренессанса, идеи о "социальном государстве" и "справедливом обществе" начали активно развиваться. В этом контексте особое значение имеют социально-политические взгляды таких мыслителей, как Абу Райхан Беруни и Аль-Хорезми. В данной статье анализируются концепции и теории, касающиеся "справедливого общества", а также подробно рассматриваются принципы государственного управления, сложившиеся на территории Хорезма.

KIRISH. INTRODUCTION. ВВЕДЕНИЕ.

Xorazm - nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo tarixida alohida o'rin tutgan hududlardan biri bo'lib, bu yerda ma'naviy va ilmiy tafakkurning rivoji barcha hududlardanda oldinroq kurtak yozdi. Ayniqsa, O'rta asrlarda tashkil topgan "Ma'mun akademiyasi" Xorazm taraqqiyotida alohida o'rin egallagan. Xorazmda yetishib chiqqan ilm ahlilari nafaqat o'z davrlarida, balki keyingi asrlar mobaynida ham milliy ma'naviyat, ilm-fan va taraqqiyotga katta hissa qo'shdilar. Ular xalqni ilm-ma'rifatga chorlab, jamiyatda madaniy yuksalishni targ'ib qildilar [10].

Jumladan, O'rta asrlarda Xorazm mintaqasida davlat tuzilishi va boshqaruvning ijtimoiy nazariyasi chuqur diniy, madaniy va siyosiy an'analarga asoslangan. Bu davrda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy tenglik,adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari Xorazmning asosiy ijtimoiy-siyosiy g'oyalariga aylanib bordi. Xorazmdagi ijtimoiy davlat nazariyasi asosan Islomning siyosiy tamoyillari [12] bilan birga mahalliy boshqaruvi an'analari va iqtisodiy-siyosiy holatga asoslangan edi.

Islom dinining O'rta Osiyo mintaqasiga kirib kelishi bilan Xorazmdagi davlat qurilishi nazariyasining asosida hukmdorlarning ilohiy hokimiyatga ega ekanligi haqidagi g'oyalar shakllandi. Islom dini hukmron din bo'lganligi sababli, hukmdor Allohning vakili sifatida tan olinib, uning maqsadi adolatni ta'minlash va shariat qonunlarini tatbiq etish sifatida ko'rilgan [14]. Shu ma'noda, hukmdorning asosiy vazifasi xalq orasida adolatni o'rnatish, mazlumlarni himoya qilish va fuqarolar huquqlarini himoya qilish edi.

USLUBLAR. METHODS. МЕТОДЫ.

Maqolada muhokama qilinadigan muammolarni tadqiq qilish uchun bir qator: germenevtik tahlil, deduktivlik, induktivlik, tarixiylik, analogik va komparativistik singari metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA. DISCUSSION. ОБСУЖДЕНИЕ.

"Adolat" Xorazmdagi ijtimoiy davlat nazariyasining markaziy elementi sifatida namoyon bo'lgan. Xorazm hukmdorlari o'z boshqaruvarida "adolatli davlat" g'oyasiga asoslanib, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalar o'rtasida tenglikni saqlashga harakat qilishgan [15]. Ushbu tamoyil islomiy an'analar bilan uyg'unlashgan bo'lib, hukmdorlarning shariat qonunlariga amal qilishini taqozo qilgan.

Xorazmda davlat boshqaruvi islomiy huquq – shariat qonunlariga asoslangan bo'lib, davlat organlari va hokimiyat vakillari ushbu qonunlarga bo'ysunganlar. Shariat qonunlari fuqarolarning shaxsiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ta'sir ko'rsatgan bo'lib, davlatning ijtimoiy tuzilishi ham ushbu qonunlarga mos ravishda tashkil etilgan edi [9].

Shariat bilan bir qatorda, mahalliy urf-odatlar va axloq normalari ham davlat boshqaruvining ajralmas qismi edi [3]. Bu axloq normalari orqali jamiyatdagi muammolar hal qilinib, turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi munosabatlar tartibga solingan. Qonun ustuvorligi orqali davlat boshqaruvi tartib va barqarorlikka asoslangan, bu esa davlatning mustahkamligini ta'minlagan.

Xorazm davlatida soliqlar jamiyatning iqtisodiy asosini tashkil qilgan va ular adolatli tarzda joriy qilinishi qattiq nazorat ostiga olingan. O'rta asrlarda soliq tizimi xalqdan olinadigan asosiy daromad manbai bo'lgan hamda davlatning barqarorligi va xalq farovonligi uchun muhim rol o'ynagan. Soliqlar odatda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqdan olinardi.

Davlatning ijtimoiy vazifalaridan biri soliqlarni adolatli taqsimlash va ulardan xalqning umumiy manfaatlari uchun foydalanish edi [9]. Hukmdorlar ham o'z boshqaruvida soliq tizimini yuqoridagilar singari tashkil qilishga intilganlar, bu esa xalqning hayotini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni saqlashga xizmat qilgan.

Xorazmning o'rta asrlar ijtimoiy tuzilishi tabaqaviy bo'lgan. Davlat ijtimoiy tuzilmasida hukmdorlar, zodagonlar, ulamolar, dehqonlar va hunarmandlar kabi tabaqalar mavjud edi [10].

Ushbu tabaqalashgan tuzilma davlatni boshqarish va jamiyatni nazorat qilishda muhim rol o‘ynagan.

Hukmdorlar va zodagonlar davlatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarishgan, lekin ulamolar ham jamiyatda katta ta’sirga ega bo‘lgan. Ular nafaqat diniy masalalar, balki ijtimoiy va siyosiy masalalarda ham muhim qarorlar qabul qilishda qatnashgan. Dehqonlar va hunarmandlar esa jamiyatning asosiy iqtisodiy qatlamin tashkil qilgan va davlatning iqtisodiy tayanchini yaratgan. Bu ijtimoiy tuzilma xalq va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy shartnomaga o‘xshab, har bir tabaqa o‘z o‘rniga ega bo‘lib, o‘z huquqlari va burchlarini bajarishi kerak edi. Xorazmshohlar yoki boshqa hukmdorlar jamiyatdagi ijtimoiy tartibni saqlash uchun bu tabaqalar o‘rtasida adolat va tenglikni saqlashga harakat qilishgan.

Xorazm davlatida xalq va davlat o‘rtasidagi munosabatlar ijtimoiy mas’uliyat va huquqlar tizimiga asoslangan edi. Davlatning asosiy vazifasi xalqni himoya qilish va adolatni ta’minalash bo‘lgan bo‘lsa, xalq esa davlatga itoat qilish, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash va ijtimoiy tartibni saqlashga majbur bo‘lgan.

Islom dini ta’siri ostida hukmdor xalq manfaati uchun xizmat qilishi, ularning ehtiyojlarini qondirishi kerakligi ta’kidlanardi. Bu ijtimoiy tuzilish ijtimoiy mas’uliyat tushunchasiga asoslangan bo‘lib, davlat boshqaruvi xalqning farovonligi uchun ishlashi kerak edi. Shu sababli, hukmdorlar xalq orasida o‘z obro‘-e’tiborini saqlab qolish uchun ularga g‘amxo‘rlik qilish, adolatli siyosat yuritish va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga intilganlar.

Xorazm davlatining ijtimoiy boshqaruvi tizimi shaharlar va qishloqlarda ham mustahkam tizimiga asoslangan edi. Shaharlar odatda iqtisodiy, madaniy va siyosiy markazlar bo‘lib, davlatning iqtisodiy kuchi va siyosiy obro‘si shu yerda to‘plangan edi. Shahar boshqaruvi maxsus hokimlar yoki noiblar tomonidan olib borilgan, ular shariat qonunlariga amal qilib, davlat buyruqlarini amalga oshirganlar [10].

Qishloqlar esa davlatning asosiy oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib beruvchi manba bo‘lib xizmat qilgan. Qishloq xo‘jaligi soliq tizimining asosiy qismi edi va davlat qishloq aholisi huquqlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun soliq tizimini adolatli taqsimlashga intilgan.

Xorazmda ilm-fan va ma’rifat jamiyatni rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan. O‘rta asr Xorazmida ilm-fan, falsafa va adabiyotning yuksalishi hukmdorlarning olim va ulamolarga bo‘lgan hurmatidan dalolat beradi. Xorazmshohlar olim va ulamolarni davlat boshqaruviga jalb qilishga, ularning maslahatlaridan foydalanishga katta e’tibor qaratishgan.

Ma’rifatparvarlik va ilm-fanning rivoji Xorazmda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davlatning ijtimoiy nazariyasida olimlar va ma’rifatchilarning roli katta bo‘lganligini ko‘rsatadi. Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy kabi

olimlar ilmiy yutuqlari orqali Xorazm davlatining intellektual va siyosiy hayotida chuqur ta'sir ko'rsatganlar.

NATIJALAR. RESULTS. РЕЗУЛЬТАТЫ.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) - o'rta asrning buyuk olimi va faylasufi bo'lib, uning ilmiy merosi matematika, astronomiya, geometriya, tarix, geologiya kabi ko'plab sohalarni qamrab oladi [5]. Beruniyning siyosiy va ijtimoiy masalalarga oid qarashlari uning falsafiy va ilmiy asarlarida ifoda etilgan bo'lib, ularning ba'zilari davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotga bevosita bog'liqdir. Beruniy nafaqat ilmiy izlanishlar olib borgan, balki davlat va jamiyat boshqaruvi to'g'risidagi fikrlari ham dolzarbdir. Uning ijtimoiy davlat nazariyasi Islom dini va sharq falsafasi tamoyillariga asoslangan holda rivojlangan.

Beruniy o'z asarlarida davlat va ijtimoiy boshqaruvning asosiy tamoyili adolat ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, davlat boshqaruvining eng oliy vazifasi jamiyatda adolatni qaror toptirishdir. Bu fikr Islom falsafasi va shariat qonunlariga asoslanib, davlat rahbari (hukmdor)ning adolatli bo'lishi va xalq manfaatlarini himoya qilishi kerakligini ko'rsatadi [8].

Beruniyning adolat haqidagi qarashlari, asosan, shariat qonunlariga bo'y sunish va ularga amal qilish orqali davlat va jamiyatning barqarorligini saqlash bilan bog'liqdir. Unga ko'ra, shariat qonunlari nafaqat diniy qonunlar, balki ijtimoiy hayotning har bir qismiga kirib boradigan keng qamrovli tizim bo'lib, ular fuqarolar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va adolatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beruniy davlat rahbarining roli va vazifalari haqida ham fikrlar bildirgan bo'lib, unga ko'ra, davlat rahbari adolatli, aqli va ma'rifatli bo'lishi zarur. Beruniyning fikricha, davlat boshqaruvchisi nafaqat siyosiy, balki ma'naviy rahnamolikni ham amalga oshirishi kerak. U hukmdorni xalqqa xizmat qiluvchi shaxs sifatida ko'radi va uning asosiy vazifasi xalq manfaati uchun ishslash, adolatni o'rnatish va jamiyatdagi ijtimoiy tartibni saqlash deb biladi.

Shuningdek, Beruniy hukmdorning ilmiy bilimga ega bo'lishini muhim deb hisoblagan. Chunki, uning nazarida bilimli rahbar davlat va jamiyatni samarali boshqara oladi va adolatli qarorlar qabul qila oladi. Beruniyning bu qarashlari o'sha davrdagi ilm va davlat boshqaruvi o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ko'rsatadi.

Beruniyning ilm-fan va davlat boshqaruvi o'rtasidagi bog'liqlikka oid qarashlari alohida e'tiborga loyiqdir. Uning fikricha, ilm-fan rivojlanishi nafaqat jamiyatning, balki davlatning barqarorligi va farovonligi uchun ham muhimdir. Davlat hukmdorlari olimlar va ma'rifatparvarlar bilan yaqin aloqada bo'lishlari kerak, chunki ular orqali davlat boshqaruvida donolik va bilim ustunligi ta'minlanadi.

Beruniy xalq huquqlari va ijtimoiy tenglik masalasiga katta e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, davlat boshqaruvi xalq manfaatlarini himoya qilishi kerak va har bir fuqaro davlat tomonidan

himoyalangan huquqlarga ega bo‘lishi lozim. Bu huquqlar asosan adolat, erkinlik va iqtisodiy farovonlikni o‘z ichiga oladi [7].

Shuningdek, Beruniyning ijtimoiy davlat nazariyasida o‘zaro hurmat va tinchlik muhim o‘rin tutadi. Uning fikricha, davlatlar o‘zaro tinchlikda yashashi, xalqlar esa bir-birini hurmat qilishi lozim. Beruniy ko‘p madaniyatli va ko‘p millatli jamiyatlar o‘rtasidagi tinchlik va hamkorlikni qo‘llab-quvvatlagan. Bu tamoyillar uning “Hindiston” asarida keng yoritilgan bo‘lib, u hind xalqlari va musulmon dunyosi o‘rtasidagi madaniy va ilmiy aloqalarning ahamiyatini tushuntiradi.

Al-Xorazmiy (780-850) o‘z davrining buyuk matematik, astronom va geograf olimi sifatida tanilgan bo‘lib o‘rta asrlar Xorazm mintaqasida Al Beruniy singari ijtimoiy davlat nazariyasida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan mutafakkirdir. Uning ilmiy ishlari, xususan algebra sohasidagi kashfiyotlari Yevropa va Islom dunyosida katta ta’sirga ega bo‘ldi [6]. Al-Xorazmiyning siyosiy va ijtimoiy davlat nazariysi haqida bevosita alohida asarlari saqlanmagan bo‘lsa-da, uning umumiy ilmiy yondashuvlari va davlat tuzilishiga doir ba’zi qarashlari mavjuddir.

Al-Xorazmiy davlat boshqaruvi va jamiyat rivojlanishida ilm va bilimning o‘rni haqida chuqur tasavvurga ega bo‘lgan. U o‘z asarlarida ilm-fanning davlat hayoti va jamiyatda adolatni o‘rnatishdagi o‘rnini ta’kidlaydi. Al-Xorazmiyning algebra va matematika sohasidagi ishlari faqat ilmiy hodisa bo‘lib qolmay, balki davlat boshqaruvidagi murakkab muammolarni hal qilishga ham yordam bergen [4].

Davlat boshqaruvining samaradorligi, ayniqsa iqtisodiy boshqaruv, soliqlarni adolatli yig‘ish va taqsimlash, infratuzilma va jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni ta’minalash uchun aniq hisob-kitoblarga asoslangan ma’muriy tizim talab etiladi. Al-Xorazmiy ilm-fan orqali davlatni boshqarishning aniq va ratsional usullari yaratilishi lozimligini o‘z ishlari orqali bilvosita targ‘ib qilgan [2].

Uning algebra haqidagi asari davlat boshqaruvi, soliq tizimi va moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘scha davr davlatlarida soliqlarni adolatli va to‘g‘ri hisoblash, iqtisodiy siyosatni belgilash uchun matematik bilimlar kerak bo‘lgan.

XULOSA. CONCLUSIONS. ВЫВОДЫ.

O‘rta asrlarda Xorazm mintaqasidagi ijtimoiy davlat nazariyasi ilohiy hokimiyat, adolatga asoslangan boshqaruv, qonun ustuvorligi va shariatga rioya qilish, soliq tizimi, ijtimoiy tabaqlanish va tenglik, shuningdek, ilm va ma’rifatni rivojlantirishga asoslangan edi. Bu nazariya orqali Xorazmda kuchli davlat tuzilishi vujudga kelgan va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tartibga solingan. O‘rta asr Xorazm mintaqasining ijtimoiy va siyosiy hayoti nafaqat islomiy qonunlar, balki mahalliy an'analar va xalqning iqtisodiy ehtiyojlariga asoslangan holda shakllangan

Al-Xorazmiy va Beruniyning davlat va jamiyat haqidagi fikrlari o'rta asr Sharq falsafasi va islomiy siyosiy tafakkurning muhim qismlaridan biri bo'lib, ularning merosi bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR. REFERENCES. ЛИТЕРАТУРА.

1. Abdullaev H. *Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodi.* – T.: Fan nashriyoti, 1996.
2. Abdurahmonov G. *O'rta asr sharq olimlarining ilm-fan va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.* – T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2001.
3. Alibekov A. *Sharq falsafasida davlat va boshqaruv tamoyillari.* – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2012.
4. Al-Khwarizmi *The Algebra of Mohammed Ben Musa.* – New York: Dover Publications, 1983.
5. Bekmurodov M. *O'rta asrlar siyosiy va ijtimoiy falsafasi.* – T.: O'zbekiston Milliy universiteti, 2010.
6. Berggren J. L. *Episodes in the Mathematics of Medieval Islam.* – New York: Springer, 2007. – 256 p.
7. Fayzullaev O. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ba'zi masalalar haqida. Beruniy. Osorul-boqiya. – T.: Fan, 1968.–372 b.
8. Beruniy A. R. *Tanlangan asarlar // Tarjimon:* Ahmadov A. – T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1958.
9. Fozilov U. *Xorazmshohlar davrida ijtimoiy boshqaruv.* – T.: Fan nashriyoti, 2005.
10. G'afurov B. *O'zbekiston davlatchiligi tarixi.* – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
11. Jafarov A. *Al-Xorazmiy va uning ilmiy merosi.* – T.: Fan nashriyoti, 1974.
12. Karimov M. *Islom va davlat boshqaruvi tamoyillari.* – T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2015.
13. Khalidov S. Xorazm tarixi va madaniyati. – T.: Fan nashriyoti, 1996.
14. Khan A. Islamic Civilization in Central Asia: A Historical and Cultural Survey. – London: Cambridge University Press, 1993.
15. Shavkatov S. S. Ogahiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida "adolat" kategoriyasining germenevtik tahlili //XXI Asr: Fan va ta'lif masalalari (XXI Век: Вопросы науки и образования). – 2024. – Т. 1. – С. 29-39.
16. Матвиевская Г. П., Розенфельд Б. А. *Математические труды Ал-Харизми.* – М.: Наука, 1983.
17. Irisov.A Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asari. Beruniy.Tanlangan asarlar. II tom. – T.: Fan, 1965. – 663 b.
18. Davletova, M. (2024). The concept of the welfare state and its role in society. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 4(06), 389–395. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-06-48>